

GLOBALLASHUV SHAROITIDA AXBOROT MAYDONIDAGI XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MUAMMOLARI

Xasonboyev B.V.

Quruqlikdagi qo'shinlar instituti Harbiy pedagogika va psixologiya
kafedrasi boshlig'i podpolkovnik, p.f.f.d (PhD), dotsent

Аннотация

Maqolada bugungi kunda axborotlashgan jamiyatga o'tish bosqichida har bir insonda muayyan darajada axborot madaniyatini shakllantirish, bunda zamonaviy vositalar va texnologiyalardan maqsadli foydalanish, axborot madaniyati – axborot bilan maqsadli ishlay bilish, uni topish, qayta ishlash va tarqatish maqsadida kompyuter texnologiyalaridan, zamonaviy texnik vositalardan foydalana bilish kabi muloxazalar yuritilgan.

Bugungi kunda globallashuv jarayoni axborot maydonida ham yaqqol namoyon bo'layotgani, ya'ni, dunyoda mislsiz ilmiy kashfiyotlar, ulkan texnikaviy imkoniyatlar, universal texnologiyalar, axborot tarqatishning globallashib, butun kurrai zaminni qamrab olish jarayoni shiddat bilan borayotgani ta'kidlanadi. Aslida, axborot sohasidagi globallashuv insoniyat uchun, dunyoning barcha hududlaridagi odamlarning o'zaro muloqati uchun, ilm – fan va madaniy boyliklarni o'zlashtirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadigan jarayondir. Eng yomoni shundaki, axborot urushini boshlaganlar nafaqat millat turmush tarzini, balki uning oq va qora, savob va gunoh, rost va yolg'on haqidagi tasavvurlarini o'zgartirishga urinishlari ta'kidlangan.

Maqolada globallashuvning milliy davlatlar suverenitetining zaiflashuvi va yemirilishiga, ularning qaram bo'lishiga olib kelinayotgani, mustamlakachilikni yangicha shaklda tiklashga urinishlar aynan globallashuv shiori ostida amalga oshirilayotgani va bunday neokolonializmning o'zaro bog'liq uchta maqsadi borligi, ya'ni dunyo ustidan gegemoniya, jahon resurslariga egalik qilish va jahon bozorlarida hukmronlik o'rnatish maqsadlarining mavjudligiga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: informatsion xuruj, globallashuv, globallashuv jarayoni, mustamlakachilik siyosati, targ'ibot, tashviqot, mafkura, axborot madaniyati, buzg'unchi g'oya, ommaviy madaniyat, terrorizm, ekologik muammolar, axborot asri.

Аннотация

В статье отмечается, что на сегодняшний день задача спетсиалистов-психологов в области семи и воспитания детей состоит в том, чтобы изучит закони, связанние с сушностью национальных традиций, в частности национальных сенностей, сохраняющихся в

<https://innovateconferences.org>

семейных отношениях, социальные и психологические условия процесса воспитания и применит полученные результаты на практике.

Отмечается, что на сегодняшний день важно сформировать у детей веру в такие ценности, как религия и традиции посредством эффективного социального института как семья, и, посредством этого, создать позитивные социальные отношения в самой семье.

Отмечается, что причиной вышеуказанных решений является историческое селоложение понятия семьи, когда она веками представляла собой отражение и передачу от поколения к поколению традиций, обычаев и ценностей.

Таким образом, в многонациональном Узбекистане стремление к общей цели, размышления о будущем молодежи, роль молодежи в развитии гражданского общества и формирование в них нового мировоззрения является одной из наиболее актуальных проблем.

В статье также отмечается, что в процессе воспитания наиболее высокую степень важности занимает непосредственное участие родителей в организации жизни детей. Также отмечается, что немаловажную роль играет воспитание трудом, что является фундаментом в развитии человека с сильным характером и волей.

Ключевые слова: информационная атака, глобализация, процесс глобализации, колониальная политика, распространение, пропаганда, идеология, информационная культура, разрушительная идеология, общественная культура, терроризм, экологические проблемы, век информации.

Abstract:

This article contains the main important points of specialists, which they should study, the national traditions based on all upbringing issues of children which belongs to the family and also "Uzbek makhalla" system, the rules of the national traditions which is preserved in the relationships with the family, the investment of social psychological conditions and practical use of all results of a research.

Nowadays, it's an important issue to have children's belief formed belonging to the traditions with the help of such a social and sensible institution like a family. Because the family during the centuries has preserved and demonstrated the national traditions, the national culture and the habits. It's also claimed that multinational Uzbekistan is aspiring to the one and the main goal, thinking of the future of the youth and their role in developing the independent society and of course adjusting their point of view.

It's included correctly managing children's life in the family upbringing, using their time effectively and aimed which means that parents role on correctly managing their time by the work and study is the pivotal issue. Aspecially, it's mentioned the role of working personal

development that makes a strong character and growing up with a strong will, making balanced family conditions, attending the youth to the family issues.

Keywords: information attack, globalization, process of globalization, colonial policy, distribution, propaganda, ideology, information culture, destructive ideology, social culture, terrorism, ecological problems, information century.

Bugungi kunda noan'anaviy tahdidlar xalqaro mojarolarning qiyofasini butunlay o'zgartirmoqda va informatsion-psixologik xurujlar sezilarli xavf-xatar tug'dirmoqda. Ular armiyamizning negiziga putur yetkazish, avvalo, uning ma'naviy-axloqiy asoslariga ta'sir o'tkazishga urinish va shuningdek, zamonaviy internet texnologiyalaridan foydalanish orqali bizning bunyodkorlik ruhidagi boy madaniyatimiz, ma'naviy qadriyat va an'analarimizga mutlaqo zid bo'lgan buzg'unchi g'oya va tushunchalarni yoshlarimizning ongi va tafakkuriga singdirishga qaratilgani bilan ayniqsa xatarlidir.

Bugun halqaro terrorchi guruhlar va buzg'unchi kuchlar o'z faoliyatida axborot texnologiyalardan yoshlarni o'ziga bo'ysundirish va zo'rovonlik g'oyasini tarqatishdek yovuz maqsadlarda foydalanmoqda.

Shu boisdan SHHT Mintaqaviy aksilterror tuzilmasining ta'sis hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish va tuzilmaga global axborot makonida yuzaga kelayotgan xavf-xatarlarni monitoring qilish va ularga qarshi turish tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha vakolatlar berishni taklif qildi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev[7].

Globalashuv maydonida inson ongini egallash uchun jang qilayotgan buzg'unchi g'oyalar qatoriga diniy-ekstremizm, terrorizm, "ommaviy madaniyat" va axborot xurujlarini kiritishimiz mumkin[2]. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida dunyo siyosatchilari orasida "Dunyoni kim boshqaradi?" degan savolga "Kim temir yo'lga egalik qilsa, o'sha" degan javob berilar edi. XXI asrga kelib bu savolga "Kim axborotga egalik qilsa o'sha" deb javob bersak mubolag'a bo'lmaydi.

Insoniyat XXI asrga qadam qo'ydi. Biroq yangi davrning tahdidi va xavf – xatarlari bilan limmo – lim ekanini ko'rib, dunyo hali ham har jihatdan o'ta mo'rt ekaniga iqror bo'lamiz. Darhaqiqat, XXI asrda dunyo xavfsizroq bo'lib qolmoqda. Qashshoqlik, ekologik muammolar, resurs taqchilligi, ommaviy kasalliklar, diniy aqidaparastlik va terrorizm XX asrdan XXI asrga meros bo'lib o'tdi.

Ustiga ustak, ayrim tajovuzkor kuchlarning urinishlari natijasi o'laroq, xavf – xatarlar ro'yxati, yangilari hisobiga yanada kengaydi. Demografik inqiroz, ma'naviy qashshoqlashuv, axborot urushlari, g'arbona turmush tarzini tiqishtirish kabi xavf – xatarlar shundoq ham bezovta dunyoning tashvishlarini ko'paytirdi[3].

Xavf-xatarlarga jiddiy razm soladigan bo'lsak, mustamlakachilik siyosati, birovlarni qaram qilish siyosati yangi asrda yo'qolmaganini, balki o'zining shakli tamoyilini o'zgartirganini tushunib yetamiz[5]. Chindan ham, "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" risolasida ta'kidlaganidek, "millat bor ekan, milliy davlat bor ekan uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf – odatlariga taxdid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar".

Agarki bashariyat tarixini, uning tafakkur rivojini tarkibiy ravishda ko'zdan kechiradigan bo'lsak, hayotda insonni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan ezgu g'oya, ta'limotlar bilan yovuz va zararli g'oyalar o'rtasida azaldan kurash mavjud bo'lib kelganini va bu kurash bugun ham davom etayotganini ko'ramiz,– deb ta'kidlagan edi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti, I.A. Karimov. Bugungi kunda globallashuv sharoitida zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgari gidek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas" [3].

Bugungi kunda globallashuv jarayoni axborot maydonida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ya'ni, axborotlashtirish globallashuv jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda kechmoqda. Bugungi dunyoda mislsiz ilmiy kashfiyotlar, ulkan texnikaviy imkoniyatlar, universal texnologiyalar, axborot tarqatishning globallashib, butun kurrai zaminni qamrab olish jarayoni shiddat bilan bormoqda. Masalan, internet tizimi orqali axborot almashuv, binobarin, g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari ham tobora kengaymoqda[6]. Aslida, axborot sohasidagi globallashuv insoniyat uchun, dunyoning barcha hududlaridagi odamlarning o'zaro muloqati uchun, ilm – fan va madaniy boyliklarni o'zlashtirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadigan jarayondir.

Aytish mumkinki, jamiyatning global axborotlashuvi ilmiy – texnik, iqtisodiy va sotsial taraqqiyotning o'zagini tashkil etadi. "Axborot asri" deb nom olgan XXI asrda axborot strategik resurs sifatida tabiiy boyliklar, energiya manbalari qatoridan joy oldi. Boshqacha aytganda, axborot taraqqiyotning bosh omiliga aylangan. Taassufki, axborotni taraqqiyot kushandasiga aylantirayotgan kuchlar ham yo'q emas. Axborotlashtirish jarayoning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda axborot sohasidagi yutuqlardan yomon niyatlarda foydalanish xavfi ham tug'ilmoqda.

Ya'ni, ko'pgina holatlarda axborotda jahonda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlarning suveren tengligi tamoyillariga amal qilish, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, kuchdan foydalanmaslik, ichki ishlarga aralashmaslik, inson xuquq va erkinliklarini hurmat qilish kabi maqsadlarga zid ravishda foydalanilmoqda

Maslan axborot texnologiyalari xiyla yuksalgan davlatlarda axborot sohasidagi imkoniyatlardan siyosiy, harbiy, iqtisodiy axborot va madaniy tajovuz maqsadida foydalanishga urinishlari ortmoqda. Oxir – oqibatda axborot harbiy snaryadlarga aylandi. Ommaviy axborot vositalari esa tajovuz quroliga aylantirilmoqda[9].

Axborot urushlari biz bilgan urushlardan qator jihatlari bilan ajralib turadi.

Birinchi, axborot urushlari ancha kamxarj, qo‘shin saqlashni, qurol – yarog‘ sotib olishni talab qilmaydi.

Ikkinchi, axborot urushlari hech qanday chegarani tan olmaydi. To‘g‘ridan - to‘g‘ri internet, sun‘iy yo‘ldosh orqali aloqa, ommaviy axborot vositalari hukumronlik qilayotgan bugungi dunyoda axborotni bojxona ko‘rigidan o‘tkazib, saragini sarakka, puchagini puchakka ajratishning iloji yo‘q.

Biroq eng tashvishlisi, bu urushda raqibni jismonan yo‘q qilish emas, uni o‘ziga ma‘nan bo‘ysundirish maqsad qilinadi. Axborot urushida inson ongi, millat ruhiyati nishonga olinadi. Bu urushda binolar zarar qo‘rmasa-da, odamlar o‘ldirilmasa-da, moddiy boyliklarga shikast yetmasa-da, uning mafkuraviy, ma‘naviy, ruhiy zarari beqiyosdir[8]. Axir, buzilgan binoni qayta bunyod etish, yo‘qotilgan mol – mulk o‘rnini qoplash mumkin, biroq shikast yegan millat ruhini qayta tiklash osonmi? Misol tariqasida bugungi kunda yaqin sharq mintaqasida qonli to‘qnashuv va nizolarni ko‘z oldimizga keltirishimizning o‘zi kifoya.

Eng yomoni shundaki, axborot urushini boshlaganlar nafaqat millat turmush tarzini, balki uning oq va qora, savob va gunoh, rost va yolg‘on haqidagi tasavvurlarini o‘zgartirishga urinadi.

Axborot sohasidagi globallashuv jahonda yetakchilik qilish uchun kurashda ham namoyon bo‘lmoqda. Chunki axborot texnologiyalarining rivojlanish darajasi davlatning geosiyosiy ta‘sirini belgilovchi omillardan biriga aylanmoqda. Bugungi voqelik bu hodisani axborot urushlari, informatsion fashizm deb nomlayotgan olimlarning gapida jon borligini ko‘rsatadi[2]. Ya‘ni, globallashuv dunyoni birlashtira turib, ayni paytda uni yemiryapti, degan xavotirlar jiddiy asosga ega.

Ko‘rinib turibdiki, globallashuv hozircha milliy davlatlar suverenitetining zaiflashuvi va yemirilishiga, ularning qaram bo‘lishiga olib kelmoqda. Chunki mustamlakachilikni yangicha shaklda tiklashga urinishlar aynan globallashuv shiori ostida amalga oshirilmoqda[10]. Bunday neokolonializmning o‘zaro bog‘liq uchta maqsadi bor: dunyo ustidan gegemoniya, jahon resurslariga egalik qilish va jahon bozorlarida hukmronlik o‘rnatish. Global neokolonializm qator strategik vazifalarni ham o‘z ichiga oladi.

Shu o‘rinda xulosa qiladigan bo‘lsak, bugungi voqelik mustamlakachilik siyosatiga asos bo‘lgan mafkuralar hali zavol topmaganini ko‘rsatmoqda. Xullas, aytish mumkinki, insoniyat jiddiy tanlov oldida turibdi. Dastlabki paytlarda asosan ijobiy jihatdan baholangan globallashuv, vaqt o‘tgach, tanqidga uchray boshladi. Insoniyat bu jarayonni to‘g‘ri o‘zanga

burmasa, oxir – oqibat o‘zi uning qo‘lidagi o‘yinchoqqa aylanib qolishi hech gap emas. Chunki keng miqyosli integratsiya va globallashtirish jarayonlari jahon taraqqiyotining hozirgi paytdagi muhim xususiyatlaridandir. Shuning uchun Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarni jangovar harakatlar vaqtida dushmanning salbiy axborot psixologik xurujlariga qarshi tura oladigan immunitetni shakllantirib borishimiz kerak.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni. Axborot va axborotlashtirishga oid normativ – huquqiy hujjatlar to‘plami. T.: “Adolat”, 2008. B.50.
2. G‘ulomov Sh. “Milliy matbuotimizda yangi bosqich” // O‘zb. Matbuoti, 2010.
3. “Axborotlashtirish jamiyatida OAV o‘rni” // Mohiyat, 2008 yil 26 sentabr.
4. Ochildiyev A. “Axborot va jamiyat taraqqiyoti” /O‘R Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi joriy arxivi, 2006.
5. O‘sarov O. “Axborotlashayotgan jamiyat talablari: qonun, ijro, mas‘uliyat”. O‘zbekiston matbuoti, 2008 yil. 3-son. B.7-9
6. Do‘stmuxammad X. “Globallashtirish davri va axborot makoni”// O‘zbekiston matbuoti, 2007 yil. 3- son. B 12-14.
7. Qozog‘iston poytaxti Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisida so‘zlangan nutqi. 2017 yil 8-9 iyul.
8. D. Shukurova, Axborot va jamiyat. Milliy tiklanish, 2009 yil 29 iyul. 9 b.
9. F. Mo‘minov, Axborot xavfsizligi va ijtimoiy taraqqiyot. O‘zbekiston matbuoti, 2007 yil 6-son, 32 b.
10. Meliqulova, Madaniyatlar to‘qnashuvi. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 8 b.